

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING  
INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA  
QO'LLANILADIGAN O'YINLAR**

*Jamatova Malika Sherqulovna*

*Osiyo Xalqaro Universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda qo'llaniladigan o'yinlar hamda o'yinlar vositasida o'quvchilar intellektual qobiliyatini shakllantirish yo'llari, o'yinlar asosida o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantirish, samaradorligi haqida fikrlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** intellektual qobiliyat, ijodiy faoliyat, o'qitish, mashg'ulot, boshlang'ich ta'lim, o'quv jarayoni, o'qituvchi, o'quvchi faoliyati, hamkorlikda o'qitish.

**Аннотация:** В данной статье игры, используемые в развитии интеллектуальных способностей учащихся начальных классов, и способы формирования интеллектуальных способностей учащихся посредством игр, освещены представления о развитии творческих способностей учащихся на основе игр и их эффективности.

**Ключевые слова:** интеллектуальные способности, творческая деятельность, обучение, начальное образование, учебный процесс, учитель, деятельность учащихся, кооперативное обучение.

**Abstract:** In this article, games used in the development of intellectual abilities of students in primary education and ways of forming intellectual abilities of students through games, ideas about the development of creativity of students based on games, and their effectiveness illuminated.

**Key words:** intellectual ability, creative activity, teaching, training, primary education, educational process, teacher, student activity, cooperative education.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy qobiliyati rivojlanishining muhim qismlari shundan iboratki ularning qo'shimch xotira zaxiralariga ega, chunki bu yoshda barcha kognitiv jarayonlarda o'zgarishlar boshlanadi. Yoshlarning tafakkuri intellektual rivojlanishining eng yuqori bosqichidir, chunki u obrazli tafakkur negizida shakllanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning intellektual fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish kerak. Shuni yodda tutish lozimki, mantiqiy fikrlashning rivojlanish jarayoni har tomonlama va tizimli ravishda amalga oshirilishi kerak. Bunday ishlarni nafaqat sinfda, balki darsdan tashqari mashg'ulotlarda ham

bajarsa bo'ladi. Faoliyatning ushbu turida o'qituvchining asosiy vazifasi yosh bolalar uchun qulay va maqbul bo'lgan turli shakl va usullarni malakali tanlashdir. Umumta'lim fanlari yordamida o'quvchilar: taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, tahlil qilish va boshqalar kabi jarayonlarni o'zlashtiradilar. Tafakkur jarayoni nazariy va amaliy faoliyatni o'z ichiga oladi, bu unga kiritilgan tadqiqot, transformatsion va kognitiv harakatlar tizimini o'z ichiga oladi. Tafakkur bilishning sezgir darajasida bevosita idrok etib bo'lmaydigan o'zimizni o'rab turgan olamning shunday obyektlari, xususiyatlari va munosabatlari to'g'risida bilimlarni olish imkonini beradi.

Bu jarayonda boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda qo'llaniladigan o'yinlar muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan o'yinlar quyidagicha tasniflanadi:

O'yinlarni yagona va eng muhim asosiy xususiyati uning ta'limdagi ahamiyatligidir. O'yinlarda bolaning xulqi erkin shakllanadi va ijtimoiylashadi. Bir tamondan o'yin ishtirokchilari uni amalga oshirishda muayyan nostandart vazifalar bilan bog'liq haqiqiy faoliyatni bajarsalar, ikkinchi tamondan esa o'yinlar bu faoliyatning aksariyat paytlarida ma'suliyatni his etgan holda haqiqiy vaziyatlardan chetga chiquvchi shartli xususiyatni ham kasb etadilar. Demak, o'yinlarning ikki tomonlama vazifani bajarishi uning rivojlanuvchi natijaga ega bo'lishiga sabab bo'ladi. O'yin faoliyati elementlaridan ta'lim jarayonida keng foydalaniladi. Ular ishbop oyinlar, didaktik o'yinlar, rolli o'yinlar, kompyuter o'yinlari shular jumlasidandir. Ishbop o'yinlar kasb faoliyati predmeti yoki ijtimoiy mazmunini qaytadan yaratish shakli bo'lib, amaliyotning ana shu turiga xos munosabatlar tizimini modellashtirishdir.

Ishbop o'yinlarni o'tkazishda uning qatnashuvchilari faoliyatini maxsus (o'yin tarzida) imitatsiya modelida rivojlantirishdan iboratdir. O'yinlarning xarakteriga ko'ra o'quv jarayoni o'yinlari tadqiqotchilik o'yinlari, boshqaruv va attestatsiyaga doir o'yinlar turiga bo'linadi. O'quv jarayoniga doir o'yinlar o'quv predmetlar bo'yicha istiqbolda kasbiy faoliyatini to'g'ri tashkil etish va shaxsni maqsadga muvofiq shakllantirishga shart-sharoitlar yaratadi. Ma'lumki, ta'lim hamkorlikka asoslanib, jamoaviy xarakter kasb etadi; kasbga xos faoliyat qoidalari va jamoaning ijtimoiy qoidalariga mos xolda amalga oshadi.

Inson hayotida o'yin faoliyati quyidagi funksiyalarni bajaradi:

kundalik ishlardan chalg'ish uchun ovunmoqlik (maza qilish, qiziqish uyg'otish, ilhomlantirish - bu o'yinning asosiy funksiyasidir);

kommunikativlik: muloqot diayektikasini o'zlashtirish;

inson amaliyoti poligoni sifatida o'yinda o'zini ko'rsatish;

o'yin – terapiya: hayot faoliyati davomida paydo bo'ladigan turli to'siqlardan oshib o'tish;

tashhislovchi: o'yin jarayonida o'zini anglash, normal hatti-harakatlardan chetlanganlikni aniqlanishi;

korreksiyalash funksiyasini bajarishi: shaxsiy ko'rsatkichlar tarkibiga pozitiv o'zgarishlarni kiritish;

millatlararo kommunikatsiyalar: barcha insonlar uchun yagona bo'lgan ijtimoiy-qadriyatlarni o'zlashtirish;

ijtimoiylashuv: jamiyat munosobatlari tizimiga kirgizish, insoniyatning umumiy yashash normalarini o'zlashtirish.

Faoliyat sifatida o'yin tarkibiga uzviy ravishda rejalashtirish, maqsadni amalga oshirish hamda shaxs o'zini subyekt sifatida o'zligini nomoyon etishdagi natijalari tahlili kiradi. O'yin faoliyatining motivi uning ixtiyoriyligi, tanlash imkoniyati va musoboqa elementlari, o'zlikni nomoyon qilishga bo'lgan talabni qanoatlantirishi bilan ta'minlanadi.

**Jarayon sifatida o'yin tarkibiga:** a) o'yinchilar tomonidan o'ziga olingan rol; b) bu rollarni amalga oshirish vositasi sifatida o'yin harakatlari; v) predmetlarni o'yinlarda qo'llanilishi, ya'ni real buyumlarni o'yinlardagi ma'lum bir shartlar bilan almashtirilishi; g) o'yinchilar o'rtasidagi real munosobatlari; d) mazmun – o'yinda shartli ravishda qabul qilingan muhit sohasi kiritiladi. O'yin ta'lim berish metodi sifatida, keksa avlodning yosh avlodga o'z tajribalarini o'tkazish maqsadida qadimdan foydalanib kelingan. O'yinlarning keng qo'llanilishini xalq pedagogikasida, maktabgacha va maktabdan tashqari muassalarda kuzatish mumkin.

**Zamonaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'yin faoliyatidan quyidagi holatlarda foydalaniladi:**

- tushuncha, mavzu va hattoki o'quv predmetining ba'zi bo'limlarini o'zlashtirish uchun mustaqil texnologiyalar sifatida;

- nisbatan keng ko'lamli bo'lgan texnologiyalar (ba'zida sezilarli darajadagi muhim) elementi sifatida;

- mashg'ulot (dars) yoki uning qismi (kirish, tushuntirish, mustahkamlash, mashqlar, nazorat) sifatida;

- sinfdan tashqari ishlar texnologiyasi sifatida (masalan, svetafor, quvnoq startlar va boshqalar). "O'yin pedagogik texnologiyalari" tushunchasi o'zida yetarli darajada keng bo'lgan metodlar va turli pedagogik o'yinlar shaklidagi pedagogik jarayonning tashkil qilish usullarini jamlaydi.

Ana shu ma'noda ta'limning didaktik va tarbiyaviy ahamiyati o'zaro birlashib, o'yin faoliyati shaklida o'quvchilarning faolligi ortadi. Didaktik o'yinlar ta'limiy maqsadlarni amalga oshiradigan va ularga moslashtirilgan bo'ladi. 60-70-yillardan boshlab faqat boshlang'ich ta'limda emas, umumiy o'rta ta'limda ham foydalanila boshladi.

Ijtimoiy- psixologik ahamiyati jihatidan o'yinlar asosan ikkita vazifani bajaradi; - *ma'lum ijtimoiy bilimlarni egallash*; - *zarur ijtimoiy qoidalarni shakllantirish*. Shuningdek, muammo nuqtai nazardan yondashganda, o'yinlar o'quvchining ijodiy faoliyatini faollashtirish bilan uning ijodiy qobiliyatini o'stiradi. Ma'lumki, bolalar o'yining sifati va samaradorligi unda ishtirok etuvchilarning hayotiy kuzatishlari va shaxsiy tajribasiga bevosita bog'liq bo'ladi. Bunda onglik, tashabbuskorlik va irodalilik kabi sifatlar ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta'lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor qo'nalishlarini izlanuvchi ta'lim, muammoli vaziyatlar yaratish va ta'limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. - Toshkent: Fan, 1997.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. Qarshi.: Nasaf, 2000.
3. Дилова Н.Г. (2014). Значение процесса педагогического сотрудничества в формировании личности учащихся начальных классов. Сборники конференций НИЦ Социосфера. № 26, С. 190-193.
4. Расулова З.Д. (2020). Программные инструменты - важный фактор развития творчества учащихся. Вестник науки и образования. № 21 (99), часть 2, С. 37-40.
5. Dilova N.G. (2021). Sharq allomalarining ilmiy merosi – uchinchi renesans uchun katta imkoniyat. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 506-514 betlar.
6. Расулова З. (2021). Замоновий ахборот-коммуникация технологиялари ўқув жараёнларини ривожлантиришнинг муҳим омили сифатида. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 349-359 бетлар.